

## “TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG’OR XALQARO TAJRIBALAR”

Xalqaro ilmiy-texnik anjuman

### Axborot xati

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 24-martdagi “2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi

76-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yilning 22-23-noyabr kunlari “Ta’lim tizimini takomillashtirishda ilg‘or xalqaro tajribalar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani o‘tkaziladi

Konferensiya **onlayn** va **offlayn** rejimda Toshkent sh., Bektemir tumani, H.Boyqaro ko‘chasi, 117 “Profi University” manzili bo‘yicha o‘tkaziladi.

Konferensiya YouTube’dagi “Profi University” kanali orqali translyatsiya qilinadi.

Konferensiyaning ishchi tillari: **o‘zbek, rus, ingliz.**

**Konferentsiya maqsadi** xalqaro ekspertlar, akademik hamjamiyatlar, amaliyotchi o‘qituvchilar va davlat organlari o‘rtasida ta’lim sohasida tajriba, g‘oyalar va ilg‘or bilimlar almashish xamda ontogeneznining turli bosqichlarida o‘rganish va rivojlantirishning fundamental va amaliy jihatlarini muhokama qilish.

#### Konferensiya yo‘nalishlari (bo‘lim)

- Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar integratsiyasi: ta’lim va bilimlarni o‘zlashtirishni yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha jahonning yetakchi davlatlarining tajribasi.
- O‘quvchilarning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirish: tanqidiy fikrlash, ijtimoiy hamkorlik, muammolarni hal qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi va usullari.
- Pedagogik kadrlarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularning ta’lim jarayonidagi rolini oshirishda ilg‘or tajribalar.
- Ta’lim samarasini baholashda innovatsiyalar: o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini har tomonlama baholashga qaratilgan ta’limni baholashning yangi usullari va vositalari.
- Ta’lim tizimini boshqarish: ta’lim sifati va qulayligini oshirish uchun ta’lim siyosati va amaliyotini boshqarishning samarali modellari.
- Ta’lim oila institutini mustahkamlashning yetakchi omili sifatida.

Anjumanda *Belarus Respublikasi, Bolgariya, Germaniya, Indoneziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Serbiya, AQSH, Turkiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya* va boshqa mamlakatlardan olimlar ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Konferensiyada **2024-yil 21-noyabrgacha** qatnashish uchun konferensiya veb-saytida onlayn tarzda yoki quyidagi havola orqali ariza topshirilishi kerak.

#### Ro‘yxatdan o‘tish havolasi

[https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSc5NEEE7UEhHqpK676Av-nMtjrsa5u6d9noFu-lJNrm5WAH9g/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSc5NEEE7UEhHqpK676Av-nMtjrsa5u6d9noFu-lJNrm5WAH9g/viewform?usp=sf_link)

Maqolalar **2024-yil 20-oktabrgacha** [https://t.me/Profi\\_ilmiy\\_bulim](https://t.me/Profi_ilmiy_bulim) elektron pochta orqali qabul qilinadi.

Bogʻlanish uchun maʼlumot:

Manzil: **Toshkent sh., 100158, Bektemir tumani, H. Boyqaro koʻchasi, 117-uy.**

Anjuman masʼul kotibi: **Dildora Baxromovna Xolmatova**

- **Telefon: +998 33-686-01-10**
- **[https://t.me/Profi\\_ilmiy\\_bulim](https://t.me/Profi_ilmiy_bulim)**

Xalqaro ishtirokchilar uchun kontaktlar:

**Zabardast Axmadovich Narzikulov**

telefon: **+998 977716045**

**Dilyara Rustemovna Rakhmanova**

telefon: **+998 900680003**

- **Telefon:** +998 777-11-11
- **Website:** [www.profiuniversity.uz](http://www.profiuniversity.uz)
- **Email:** [info@profiuniversity.uz](mailto:info@profiuniversity.uz)

**ILOVA**

### **Konferensiyaga taqdim etiladigan materiallar uchun talablar:**

Maqolalar matnlari MS WORD matn muharriri yordamida Times New Roman shriftida, 14 oʻlchamda, 1,5 intervalda, yuqori va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, oʻngdan 1,5 sm joy qoldirilgan holda tayyorlanishi lozim.

Matn sarlavhasi katta harflar bilan qoraytirib yozilishi kerak, undan keyin muallif(lar)ning ismi, sharifi va familiyasi, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi koʻrsatiladi, soʻng matni keltirilishi zarur.

Maqolaning ingliz, rus va oʻzbek tillarida annotatsiyasi (2-3 jumlada), tayanch tushunchalar esa matn izchilligida rasmiylashtiriladi. Jadvallar va chizmalarning raqamlari, yozuvlari ust qismiga joylashtiriladi.

Havolalar sahifa tagida beriladi, unda adabiyotning muallifi, nomlanishi, nashriyoti, nashr yili, fikr olingan beti asoslangan sahifasi koʻrsatiladi hamda oʻrnatilgan tinish belgilari tizimiga amal qilinadi.

Maqolalar hajmi 3-5 sahifadan oshmagan holda bir nusxada va elektron variantda tashkiliy qoʻmitaga yetkazilishi lozim.

**Maqolaning elektron nusxasi quyidagi shaklda nomlanishi zarur: shoʻba raqami, birinchi muallifning familiyasi, masalan: 4\_Sobirov.docx**

Maqolalar ilmiy saviyasi boʻyicha tashkiliy qoʻmita tomonidan tanlab olinadi. Qoʻyilgan talablarga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qoʻlyozmasi muallif(lar)ga qaytarilmaydi.

Maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi uchun muallif(lar) masʼuldirlar.

Anjumanning ilmiy maqolalari toʻplami elektron va bosma shaklda chop etiladi.

Anjumanda ishtirok etish bepul.

**Namuna**

**MAQOLA NOMI**

**I. I. Azizov**

Profi University, Toshkent

**Annotatsiya.**

**Kalit soʻzlar:**

Maqola matni [1].

**Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Wagemann, J. & Weger, U. (2021). Perceiving the other self: An experimental first-person account of nonverbal social interaction. *The American Journal of Psychology*, 134(4), 441–461.